

JON MILTONNING “YO‘QOTILGAN JANNAT” VA BURHONUDDIN RABG‘UZIYNING “QISASI RABG‘UZIY” ASARLARIDA DEMONOLOGIK VA ANGELOLOGIK OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI

Kuchiboyev Mansur Abdumurotovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi

Xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: m6160612k@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” epik dostoni va Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarlaridagi demonologik va angelologik obrazlar – Shayton/Iblis, haydalgan farishtalar, Jibroil/Mikoil/Rafoyil kabi timsollar – qiyosiy-tipologik usulda tahlil qilinadi. Ikki asardagi yovuz va ezgu kuchlarning badiiy funksiyalari, diniy-mifologik ildizlari va insoniyat taqdiri bilan bog‘liq g‘oyaviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: demonologiya, angelologiya, “Yo‘qotilgan jannat”, “Qisasi Rabg‘uziy”, Shayton/Iblis, haydalgan farishtalar, qiyosiy adabiyotshunoslik, diniy epos.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ демонологических и англологических образов в произведениях «Потерянный рай» Джона Милтона и «Кисаси Рабгузий» («Повести Рабгузий») Бурхонуддина Рабгузий. Рассматриваются такие образы, как Сатана/Иблис, падшие ангелы, а также ангелы Джибраил, Михаил и Рафаил. Раскрываются художественные функции злых и добрых сил, их религиозно-мифологические истоки и идейное значение в контексте судьбы человечества.

Ключевые слова: демонология, англология, «Потерянный рай», «Кисаси Рабгузий», Сатана/Иблис, падшие ангелы, сравнительное литературоведение, религиозный эпос.

Abstract. This article presents a comparative-typological analysis of demonological and angelological images in “Paradise Lost” by John Milton and “Qisasi Rabguziy” by Burhonuddin Rabg‘uziy. The study focuses on such figures as Satan/Iblis, fallen angels, and angelic figures like Gabriel, Michael, and Raphael. It explores the artistic functions of evil and benevolent forces in both works, their religious and mythological roots, and their ideological significance in relation to the fate of humanity.

Keywords: demonology, angelology, “Paradise Lost”, “Qisasi Rabguziy”, Satan/Iblis, fallen angels, comparative literature, religious epic.

Kirish. Jahon adabiyotida diniy-mifologik tasavvurlar badiiy tafakkurning muhim va ajralmas qatlamini tashkil etadi. Insoniyat tarixida yaxshilik va yomonlik, gunoh va najot, ilohiy kuchlar va shaytoniy mavjudotlar o‘rtasidagi kurash turli davr va madaniyatlarda o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Ayniqsa, Ibrohim dinlari – islom va xristianlik asosidagi adabiy asarlarda bu masalalar chuqur falsafiy hamda badiiy yondashuv asosida yoritilgan.

Ingliz adibi John Miltonning Paradise Lost (“Yo‘qotilgan jannat”, 1667) dostoni hamda o‘rta asr turkiy adabiyotining nodir namunasi bo‘lgan Burhonuddin Rabg‘uziyning Qisasi Rabg‘uziy (1309–1310) asari diniy mavzular asosida yaratilgan yirik badiiy asarlar sirasiga kiradi. Har ikki asar turli tarixiy va madaniy muhitda yaratilgan bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi asosiy jihat – ilohiy olam va inson o‘rtasidagi munosabatni badiiy talqin qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. 12 ta kitobdan tashkil topgan “Yo‘qotilgan jannat” dostoni o‘n mingdan ortiq misradan iborat. Asar Injilning “Ibtido kitobi”da keltirilgan Odam Ato va Momo Havoning jannatdan haydalihi voqeasini epik ko‘lamda bayon etadi. Asarda muhim rol ni haydalgan yoki kofir bo‘lgan farishta, ya‘ni Iblis (Serpent) o‘ynaydi. U Yaratganga qarshi bosh ko‘taradi va yashirincha farishtalarning uchdan bir qismini (qo‘zg‘olonchi farishtalar – rebel angels) o‘ziga og‘dirib, farishtalarga qarshi qurolli kurashni tashkil etadi. Burhonuddin Rabg‘uziyning yagona saqlanib qolgan asari “Qisasi Rabg‘uziy” (boshqa nomi – “Qissas ul-anbiyo”, ya‘ni “Payg‘ambarlar qissalari”) millodiy 1309–1310-yillarda (hijriy 709–710-yillarda) Nosiriddin To‘qbug‘aning buyrug‘i bilan yozilgan. Asar Qur‘on, Abu Ishoq Nishopuriyning “Qisas ul-anbiyo” asari va boshqa islomiy manbalarga asoslanib, payg‘ambarlar hayotini badiiy tarzda hikoya qiladi. “Qisasi Rabg‘uziy” turkiy nasrning eng qadimgi yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Ikki asarning ham markaziy demonologik obrazi – Shayton/Iblis hisoblanadi. Biroq bu ikki asarda Iblis tasvirining badiiy konsepsiyasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Milton “Yo‘qotilgan jannat”da Iblis (Lucifer/Satan) obrazini Ibrohim dinlari tarixida mislsiz psixologik chuqurlik bilan tasvirlaydi. Dostonning I kitobida Iblis “Birinchii arxangel” darajasida ifodalanadi. U Yaratganga isyon qilib jahannamga uloqtirilganidan so‘ng ham o‘z kibrini yo‘qotmaydi: u jannatda qul bo‘lib xizmat qilgandan ko‘ra, jahannamda hukmdor bo‘lishni afzal ko‘radi. Milton talqinidagi iblisi fojeaviy qahramonning barcha belgilarini o‘zida mujassamlashtiradi: u aqlli, botir, notiq – ammo gunohkor. Bu xususiyat muallifning Puritancha dunyoqarashini aks ettiradi: erkin iroda insonni ham, farishtani ham ularni tanlagan yo‘l uchun mas‘ul qiladi. “Qisasi Rabg‘uziy”da Iblis obrazi islom aqidasi ga to‘liq mos holda berilgan. Rabg‘uziy Iblisni Allohning amriga itoatsizlik qilgan, kibr u havoga berilgan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Odam yaratilganda farishtalar unga sajda qilganda Iblis kibr bilan rad etadi: “Men olovdan yaratilganman, u – tuproqdan; men undan afzalroqman”, deydi u. Bu Qur‘on oyatining (Al-A‘rof, 11:7-oyat) badiiy ifodasidir. Rabg‘uziy Iblisni bir o‘lchovli – butunlay yovuz – obraz sifatida tasvirlaydi. Bu borada u Miltonning murakkab psixologik Iblisiga o‘xshamaydi. Asardagi Iblis islom ta‘limotining an‘anaviy talqinidan chetga chiqmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur asarlar Ibrohim dinlari – xristianlik va islom aqidalari asosida shakllangan bo‘lib, ularda demonologik (shayton, iblis) va angelologik (farishtalar) obrazlar markaziy o‘rin egallaydi. Bu obrazlar orqali mualliflar yaxshilik va yomonlikning mohiyatini, insonning tanlovi va iroda erkinligini, shuningdek, ilohiy adolat masalalarini chuqur falsafiy darajada ochib beradi.

Shu bois, ushbu tadqiqotda ikki asardagi demonologik va angelologik obrazlarning qiyosiy tahlili orqali ularning badiiy talqini, diniy asoslari hamda falsafiy mazmuni o‘rganiladi.

Tahlillar va natijalar. Haydalgan (kofir bo'lgan) farishtalar obrazi ham ikkala asarda turlicha talqin qilinadi. Milton I–II kitoblarda butun bir iblislar panteonini tasvirlaydi: Velzevul, Molox, Baal, Dagon, Mammon va boshqalar. Bu obrazlar ko'pxudolik va budparastlik dinlarida keltirilgan xudolaridan olingan bo'lib, Milton ularni Iblisning safdoshlari – haydalgan farishtalar – sifatida talqin qiladi. Asarda keltirilgan har bir haydalgan farishta o'zining alohida xususiyati va funksiyasiga ega. Xususan, Molox – zo'ravonlik va qon, Mammon – boyluk va moddiyati, Beliya – qalloblik va ayyorlikni ifodalaydi. “Qisasi Rabg‘uziy”da esa kofir bo'lgan farishtalar tasvirining o'zni deyarli mavjud emas. Asardagi yovuz kuch asosan Iblis va uning vasvasasi orqali ifodalanadi. Biroq jinlar obrazi alohida uchraydi. Ular Sulaymon payg‘ambar qissasida muhim rol o'ynaydi. Sulaymon ularga hukmronlik qiladi, ularni qurilish va boshqa ishlarga jalb etadi. Ular islom tasavvuridagi jinlar konsepsiyasiga mos, na mutlaq yovuz, na mutlaq ezgu, biroq Alloh irodasiga bo'ysunishi shart bo'lgan mavjudotlar.

Ezgu farishtalar obrazi ham ikki asarda muhim ahamiyatga ega, biroq ularning badiiy funksiyasi va tasvirlanish tarzi bir-biridan farq qiladi. Milton dostonida arxangellar – Mikoil (Michael), Jibroil (Gabriel) va Rafoyl (Raphael) – alohida ahamiyat kasb etadi. Rafoyl V–VIII kitoblarda Odam Atoga Iblisning isyoni va jannatning yaratilishi haqida hikoya qiladi. Bu obraz “inson bilan samimiy suhbatdosh farishta” arxetipini ifodalaydi. Mikoil XI–XII kitoblarda Odam Atoga insoniyatning kelajagini ko'rsatadi va jannatdan haydaliq jarayonini amalga oshiradi. Asarning teologik konsepsiyasida farishtalar Yaratganning irodasini ijrochilari sifatida namoyon bo'ladi, lekin ular ayni vaqtda ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi murabbiylar hamdir. “Qisasi Rabg‘uziy”da farishtalar obrazi islom ta'limotining ramziy tizimidan kelib chiqadi. Jabroil ilohiy vahiyning yetkazuvchi asosiy elchi sifatida barcha payg‘ambarlar qissasida uchraydi. Muso payg‘ambar qissasida Jabroil ko'p marta muhim vazifalarni bajaradi. Iso payg‘ambarning Maryamga xabar berilishi (Maryam qissasi) ham Jabroil orqali amalga oshadi. Rabg‘uziyda farishtalar mutlaqo ilohiy bo'ysunuvchi, irodasiz emas – lekin ularning irodasi Alloh irodasiga to'liq uyg'un. Ular isyon ko'tarish imkoniyatini hatto nazarda tutmaydi (Iblis bundan mustasno). Bu Milton poemasidagi farishtalardan farq qiluvchi asosiy jihat. Miltonda farishtalar ham erkin irodaga ega va Iblis ularning bir qismi edi.

Ikki asarning qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, ikkala asarda ham demonologik obrazlarning markazida kibr va hasad (g'urur) motivi yotadi. Miltonning Iblisi Xudoning O'g'liga Messiya (Masix) maqomi berilgani uchun hasadi kelib, unga sajda qilishdan bosh tortib isyon ko'taradi. Rabg‘uziyning Iblisi tuproqdan yaratilgan Odamga sajda qilmasdan kibr qiladi. Ikkala holda ham Iblis Xudo amrini rad etganligining sababi, u “o'z ustunligiga” ishonganadi. Bu universal motiv Ibrohim dinlaridagi demonologik tasavvurning umumiy asosini tashkil etadi. Ikkinchidan, ezgu farishtalar ikki asarda ham ilohiy adolat va rahmatning

vositachilari sifatida ifodalanadi. Biroq Milton farishtalariga murakkabroq psixologik xususiyatlar berilgan. Ular his-tuyg‘u, o‘y-xayol, muloqot qobiliyatiga ega shaxslar sifatida gavdalanadi. Rabg‘uziy farishtalariga esa bunday individuallashtirilgan psixologiya xos emas – ular ko‘proq ilohiy funksiyaning ramzlari sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, asarlar o‘rtasidagi eng muhim farq g‘oyaviy maqsad bilan bog‘liq. Milton o‘zining Puritancha-protestant teologiyasi doirasida erkin iroda, gunoh va najot mavzularini falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Demonologik va angelologik obrazlar bu teologik munozaraning badiiy vositalariga aylanadi. Rabg‘uziy esa o‘z asarini islom ta‘limotini tasdiqlash va ommani dinga yo‘llash maqsadida yozadi. Uning obrazlari diniy ta‘limotning badiiy shaklda ifodalanishidir. Bu falsafiy munozaraga emas, balki iymon va ibratga xizmat qiladi.

“Yo‘qotilgan jannat” va “Qisasi Rabg‘uziy” asarlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikkala asarda ham Ibrohim dinlari kosmologiyasining umumiy manbalaridan foydalanilgan. Shayton/Iblis obrazi, haydalgan farishtalar, arxangellar – bularning barchasi ikki asarda ham mavjud. Biroq bu umumiy materiyaning badiiy talqinida chuqur farqlar ko‘zga tashlanadi. Milton Iblisni fojeaviy qahramonga aylantirib, erkin irodaning og‘ir yukini ko‘rsatadi. Rabg‘uziy esa Iblisni bir o‘lchovli yovuzlik timsoli sifatida, islom ta‘limotining ramzi sifatida beradi. Angelologiya sohasida Milton farishtalarga individuallashtirilgan psixologiya berib, ularni badiiy timsollarga aylantiradi, Rabg‘uziy esa farishtalarni ilohiy funksiyaning tashuvchilari sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Paradise Lost hamda Qisasi Rabg‘uziy asarlaridagi demonologik va angelologik obrazlar qiyosiy tahlili ularning nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki chuqur diniy-falsafiy asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har ikki asar turli tarixiy davr va madaniy muhitda yaratilgan bo‘lsa-da, ularda aks etgan asosiy g‘oyalar insoniyat tafakkurining umumiy muammolari bilan chambarchas bog‘liqdir. John Milton asarida Satan obrazi an‘anaviy yovuzlik timsolidan chiqib, murakkab psixologik va falsafiy qiyofaga ega bo‘ladi. U orqali insonning erkin tanlov qilish huquqi, isyonkor ruh, g‘urur va mag‘lubiyat kabi tushunchalar keng yoritiladi. Bu yondashuv Yevropa Uyg‘onish davri va protestant gumanizmi ta‘sirida shakllangan bo‘lib, unda shaxs erkinligi va individual qaror muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Milton demonologiyani faqat diniy doirada emas, balki inson ruhiyati va ichki ziddiyatlarini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida talqin etadi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Burhonuddin Rabg‘uziyning Qisasi Rabg‘uziy asarida Iblis obrazi qat‘iy diniy-axloqiy mezonlar asosida talqin qilinadi. U kibru havo, itoatsizlik va ilohiy buyruqqa qarshi chiqishning ramzi sifatida namoyon bo‘lib, o‘quvchini axloqiy saboq chiqarishga undaydi. Farishtalar esa mutlaq itoat, poklik va ilohiy tartibni ifodalovchi ideal mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Bu esa islom ilohiyoti va tasavvufiy qarashlarning badiiy ifodasini aks ettiradi.

Shu bilan birga, har ikki asarda demonologik va angelologik obrazlarning mavjudligi ularning umumiy teologik negizga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ya'ni, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi abadiy kurash, insonning bu kurashdagi o'rni, uning axloqiy tanlovi va mas'uliyati kabi masalalar har ikkala asarda ham markaziy g'oya sifatida ilgari suriladi. Bu holat ushbu asarlarning faqat muayyan diniy an'analarga tegishli emasligini, balki jahon adabiyotining umuminsoniy va universal qadriyatlarini ifoda etuvchi yuksak badiiy yodgorliklar ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, demonologik va angelologik obrazlar har bir madaniyatda o'ziga xos tarzda talqin qilinsa-da, ularning asosiy funksiyasi – insonni ma'naviy kamolot sari yetaklash, uni ezgulikni tanlashga undash va yovuzlik oqibatlarini haqida ogohlantirishdan iboratdir. Shu jihatdan bu obrazlar nafaqat diniy, balki didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Paradise Lost va Qisasi Rabg'uziy asarlarining qiyosiy o'rganilishi turli madaniyat va diniy an'analarda o'rtasidagi farqlarni aniqlash bilan birga, ularning mushtarak jihatlari ham ochib beradi. Bu esa jahon adabiyotida diniy-falsafiy tafakkurning rivojlanishini chuqurroq anglashga, shuningdek, insoniyatning umumiy ma'naviy qadriyatlarini tadqiq etishga keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cummins J. Milton and the Ends of Time. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 270 p.
2. Leib M. Milton and the Culture of Violence. – Ithaca: Cornell University Press, 1994. – 296 p.
3. Salam A. The Treatment of Milton's Fallen Angels in the 'Paradise Lost' // Electronic Research Journal of Literature. – 2020. – Vol. 2. – P. 1–14.
4. Lewis C. S. A Preface to Paradise Lost. – London: Oxford University Press, 1942. – 142 p.
5. Milton J. Paradise Lost / Ed. by J. Leonard. – London: Penguin Classics, 2000. – 453 p.
6. Milton J. Paradise Lost. Book I // The Complete Poetry and Essential Prose of John Milton / Ed. by W. Kerrigan, J. Rumrich, S. M. Fallon. – New York: Modern Library, 2007. – P. 291–398.
7. Nafi J. Milton's Portrayal of Satan in Paradise Lost and the Notion of Heroism // SSRN Electronic Journal. – 2016. – Available at: <https://ssrn.com/abstract=2838080>
8. Qur'oni Karim. O'zbek tilidagi tarjima va tafsir / Tarj. A. Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2001. – 720 b.
9. Рабғузий Н. Б. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
10. Рабғузий Н. Б. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 256 б.
11. Фозилов Э. И. Носириддин Рабғузий ва унинг «Қисаси Рабғузий» асари. – Тошкент: Фан, 1963. – 114 б.
12. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 504 б.